

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

BIR SHOHBAYT TAHLILI YOXUD NAVOIY ULUG'LAGAN "BIR TURK" KIM EDI?

Sultonmurod OLIM,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, filologiya fanlari doktori, professor,

Toshkent amaliy fanlar universiteti

smo54@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18886415>

Annotatsiya. Ma'ruzada buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida uchragan bir mashhur bayt g'oyasining genezisi o'rganiladi, uning muallifini aniqlashga harakat qilinadi, yaratilish usuliga aniqlik kiritiladi va mazmun-mohiyati tahlil etiladi. Shu tariqa shoir ijodida boshqa mualliflarning turkiy, forsiy va arabiy tilda yozma yoki og'zaki tarzda ifodalangan hikmatli so'zlarini o'zbek tilida she'rga solib ifodalash yo'lini ham tutgani oydinlashtiriladi.

Kalit so'zlar: Konfutsiy, Aflotun, Shayx Abu Said, Abulfazl Muhammad binni Husayn, Alisher Navoiy, zamon, o'tmish, bugun, kelajak, nasr, she'r, bayt.

Аннотация. В данном докладе изучается генезис идеи одного знаменитого бейта, встречающегося в произведении великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои "Влюбленный сердце" ("Махбуб ул-кулуб"), предпринимаются попытки определить его автора, уточняется способ создания и анализируется его сущность. Таким образом, становится ясно, что в творчестве поэта он также использовал метод написания мудрых изречений других авторов, выраженных в письменной или устной форме на тюркском, персидском и арабском языках, в стихах на узбекском языке.

Ключевые слова: Конфуций, Платон, Шейх Абу Саид Абул Хайр, Абулфазл Мухаммад бин Хусейн, Алишер Навои, время, прошлое, настоящее, будущее, проза, поэзия, бейт.

Annotation. This report examines the genesis of the idea of a famous beyt, found in the work of the great Uzbek poet and thinker Alisher Navoi, "Lovers of Hearts" ("Mahbub ul-qulub"). Attempts are made to identify its author, clarify the method of its creation, and analyze its essence. Thus, it becomes clear that in the poets work he also used the method of writing down wise sayings of other authors, expressed in written or oral form in Turkic, Persian and Arabic languages, in verses in the Uzbek language.

Keywords: Confucius, Plato, Sheikh Abu Said Abul Khayr, Abulfazl Muhammad bin Hussein, Alisher Navoi, time, past, present, future, prose, poetry, beyt.

Zamon uchga bo'linadi. Zamon uchga – o'tmish, bugun va kelajakka bo'linadi. Navoiy "Mahbub ul-qulub"ning uchinchi qismida ana shu o'tmish, hozirgi zamon va kelajak haqida ajib bir fikrni bayon etadi: "O'tgan ro'zgor adamdur, kelmagandin so'z aytqon ahli nadamdur va hol mug'tanamdur" [2:126]. Buni hozirgi tilimizda tushuntiribroq ifodalasak, undan: "O'tgan hayot — bugun yo'q, hali kelmagan davrdan so'zlagan kishi esa keyin afsus qiladi, shuning uchun hozirgi payt – g'animat", – degan ma'no kelib chiqadi.

Zo'r gap, to'g'rimi?

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Chunki tarix o'tib ketdi, kelajak hali kelgani – yo'q, qo'limizda naqdi – hozirgi zamon-da.

“Dam — bu damdur!..” XX asrda G'arbning ko'p-ko'p buyuk psixologlari ham aynan shu xulosani ilgari surishadi. Odam o'tmishda kechgan voqealarni hadeb eslayvermasdan yoki kelajak haqida ko'p ham xom xayollarga berilavermasdan, imkonida bo'lgan naqd vaqtini unumli, foydali va xushvaqt o'tkazish payidan bo'laverishi – kerak, deyishadi ular.

Lekin buni Navoiy bundan 500 yil burun aytgan-da!

Aslida, bu fikrni Navoiydan ham qariyb 500 yil burun boshqa bir avliyo zot aytgan ekan. Buni Navoiyning “Mahbub ul-qulub”dagi mana bu so'zlaridan bilib olamiz: “Bir turk bu ma'nida debdurkim: “Dam – bu damdur”.

Bayt:

Moziyu mustaqbal ahvolin takallum ayla kam,

Ne uchunkim, dam – bu damdur, dam – bu damdur, dam – bu dam!” [2:126].

Baytning badiiy go'zalligiga qarang!

“Dam – bu damdur!” so'zlarining uch karra takrorlanishi ta'sirchanlikni yanada oshirib yuborgan. Sharq mumtoz she'riyatining bunday qo'shmisralarini “shohbayt” deb ulug'lashgan. Shohbayt bo'lsa, shuncha bo'lar.

“Moziy” – o'tmish, “mustaqbal” – kelajak, “takallum” – so'zlash ekanini aytsak, bu satrlardagi ma'no bugungi o'quvchiga ham ap-ayon bo'ladi-qoladi: “O'tmish bilan kelajakdan kamroq gapir, chunki dam – bu damdir, dam – bu damdir, dam – bu dam!” Axir, haqiqatan ham, o'tmish qo'ldan chiqqan, kelajak hali qo'lga kirgani – yo'q, naqdi – hozirgi zamon-da. Navoiy turkiy so'z oshiqu oshuftasi, buyuk jonkuyari, targ'ibotchisi, nazariyotchisiyu amaliyotchisi edi. Bu tilda “yilt” etgan bir ifodaniyu uning muallifini hech ham bee'tibor qoldirmas edi. Unda nega shunday go'zal she'riy mo'jizaviy bayt yaratgan shoirni aytmay ketapti?

Hamma gap shundaki, bizningcha, bu she'rni Navoiyning o'zi yozgan. Fikr esa – boshqaniki, ya'ni “bir turk”niki. Ulug' shoir: “Bayt”, – deb o'zining satrlarini keltirgan. She'rga asos bo'lgan fikr birovniki bo'lgani uchun buyuk mutafakkir, insof yuzasidan, buni qayd etib o'tgan-u, uning aynan kimga tegishli ekanini oshkor qilmagan.

Oltin topgandek bo'ldim. Bir necha yildan buyon “bir turk” kimligini izlar edim. Izlaganga tole' – yor, deganlari rost ekan. Navoiyni tushunish uchun, avvalo, Navoiyni o'qish – kerak. Chunki buyuk shoir va mutafakkirning bir asari ikkinchisi uchun haqiqiy kalit vazifasini o'tashi — mumkin. Javobni yaqinda “Nasoyim ul-muhabbat...” tazkirasidan topib, quvonib ketdim.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Mana, o'sha parcha: "Shayx Abu Said debdurki: "O'z zamonasi shayxlaridan saraxslik Abulfazl Muhammad binni Husayndan eshitdim, aytti: "O'tmishni eslamaslik, kelajakka ko'z tutmaslik kerak. E'tibor ayni vaqtga bo'lsinki, bu bandalikning sifatidir" [5:200].

Ma'lum bo'lyaptiki, bu fikrni Abulfazl Muhammad binni Husayn Shayx Abu Saidga aytgan. Xo'sh, Abulfazl Muhammad binni Husayn – kim-u, Shayx Abu Said – kim? Tasavvuf tarixida o'tgan shayxlar haqida o'zbek tilida "Nasoyim ul-muhabbat..."dan mukammalroq manba – yo'q. Shunga suyanamiz. Shayx Abulfazl Hasan Saraxsiy haqidagi maqolada: "Abu Said Abulxayrning piri" [5:199], – degan ma'lumotga duch kelamiz. Shayx Abu Said Abulxayr haqidagi maqolada esa bu fikr yana takrorlanadi: "Odob tariqatda piri Pir Abulfazl Hasan Saraxsiydir" [5:211]. Demak, murid pirining so'zini keltiribdi. Bu uning ishonchli ekanini kafolatlaydi, albatta.

Endi aniqlashtirilishi lozim bo'lgan birgina masala qoldi: Abulfazl Hasan Saraxsiy, chindan ham, turkiy qavm vakili bo'lganmi?

Eroning Turkmaniston bilan chegaradosh shimoliy-sharqiy qismida Saraxs viloyati joylashgan. Ammo chegaraning beri yog'ida, ya'ni Turkmanistonning Ashxobod viloyatida ham Saraxs qo'rg'oni – mavjud. 1024-yili vafot etgan Abulfazl Hasan Saraxsiyning qabri aynan ana shu Saraxs qo'rg'onida. Shuning o'zi bilan oq Navoiy "bir turk" deganda aynan shu shayxni ko'zda tutgani oydinlashdi.

Navoiy ijodida birovlarining nasriy durdona fikrlarini go'zal tarzda she'rga solish yana ko'p uchraydi. Bu yerda shu bilangina cheklanamiz.

Sharq va G'arb — bir qadam. Hangomaning qizig'i endi keldi. Afkor omma orasida: "Buyuklar bir xil fikrlaydi", – degan aqida yuradi. Rost gap. Ijtimoiy tarmoqlarga kirib, eramizdan oldingi 551 – 479-yillarda Xitoyda yashagan buyuk faylasuf Konfutsiyning rus tilida bayon etilgan: "Kecha bizdan ketib bo'ldi, erta esa – hali kelganicha yo'q. Faqat o'tib borayotgan shu soatgina – bor. Shu ham kam emas" [ruschasi – quyidagicha: "Вчера – ушло от нас, а завтра – не настало. Есть лишь идущий час. И этого немало!"], – degan hikmatini o'qib qoldim. Ifodasidagi ayrim farqlarnigina demas, o'sha-o'sha mazmun. Demak, buyuk faylasuf bu xulosasini Abulfazl Hasan Saraxsiydan bir yarim ming yil burun aytgan ekan.

Qiziqki, Aflotun ham shu dono fikrni aytgan ekan: "Fardo yak roz ast, nigaronash nabosh! Dir̄y yak xotira bud, hasratashro nabosh! Imr̄y yak hadya ast, qadrashro bidon va az har lahzai umrat lazzat bibar!" [7] ("Erta — bir sir, unga ko'p ham umid bog'lab o'tirma! Kecha — bir xotira, hasratini qilib o'tirma! Bugun — bir hadya, uning qadriga yet va umringning har lahzasidan lazzat tuy!")

"Buyuklar bir xil fikrlaydi", — degani — shu-da.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ikki kishi bir xulosaga kelsa-chi?! Navoiyning “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida mavzuga doir yana bir qiziq faktga duch kelamiz. Pahlavon Muhammad bastakorlik va xonandalik bobida ham yuksak iste’dod sohibi edi. U zamondoshi Mavlono To‘tiy(1461/62 yili vafot etgan)ning bir g‘azaliga kuy bastalab, shunday ijro etadiki, bu qo‘shiq faqat Xurosondagina emas, Samarqand va Iroqda ham uni bilmaydigan ashulachi qolmaydi, Navoiyning dalolat berishicha, hatto, xonanda bo‘lmagan ko‘p-ko‘p kishilar ham yod biladigan bo‘lib ketadi. Eng muhimi, ana shu g‘azalning matla’sida aynan o‘tmish o‘tib ketganligi, kelajakni esa hali hech kim ko‘rmagani, shuning uchun bugun xush o‘tkarish g‘oyasi ilgari suriladi:

Soqiyo, de rafta hastu ahvoli fardo – nopadid,

Xeshro imr̄ȳz xush doremu fardoro ki did? [3:106]

Tarjimasi: “Ey soqiy, qishning ikkinchi oyi ketdi-yu, ertaning ahvoli — noma’lum. O‘zimizni bugun xursand qilaylik, ertani esa kim ko‘ribdi?” [3:223].

Demak, musulmon Sharqi mumtoz she’riyatida mavjud hikmatomuz xulosalarni turli badiiy jihatdan go‘zal shakllarda she’rga solib ifodalayverish rasm bo‘lgan. Shuning uchun bir fikr takrorini ko‘rib, shosha-pisha: “Falonchi falonchidan ko‘chiribdi”, – degan xato xulosaga boravermaslik – lozim.

She’rning kuchi. Navoiyning hikmatli so‘zlari sifatida elimiz orasida ma’lumu mashhur bo‘lib ketgan ayrim baytlar ham — aslida, tarixda o‘tgan boshqa buyuk zotlarning nasrda aytgan fikrlarining ulug‘ o‘zbek shoiri tomonidan she’rga solinganidan iborat. Masalan:

Shoh daryo va xalq erur anhor,

Ikisining suyig‘a bir maza — bor [4:193], —

degan baytni Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Aristotolisning mana bu fikrlarining she’riy ifodasi sifatida qog‘ozga tushirgan: “...Podshoh ulug‘ rudga o‘xshar va atbo‘i (unga tobe’, undan oqadigan — S. O.) arig‘g‘larg‘akim, ul ruddin ayrildilarkim, ul rud suyig‘a har hol bo‘lsa, arig‘larg‘a ham hamul holdur: ul chuchuk bo‘lsa, bular chuchuk; ul achig‘ bo‘lsa, bular achig‘; ul sof bo‘lsa, bular sof; ul loy bo‘lsa, bular loy. Pas, podshohg‘a vojibdur — g‘oyat hikmat (donolik — S.O.) va e’tidol (tenglik — S.O.) bila maosh qilmoq (ish yuritmoq — S.O.), to xayl (xalq — S.O.) va hashami (mansabdorlar — S.O.) anga mutobaat (itoat — S.O.) qilg‘aylar” [4:193].

Yoki mana bu bayt ham No‘shiravonning odil vaziri sifatida nom chiqargan Buzurjmehr aytgan: “Yigitlikda ilm kasb qilmoq va qarilig‘da ani amalg‘a kelturmak yaxshidur” [4:194], — degan fikrining she’riy ifodasi hisoblanadi:

Yigitlig‘da yig‘ ilmning maxzani,

Qarilig‘ chog‘i xarj qilg‘il ani [4:194].

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Bular shoirning birovlariga tegishli o'ziga ma'qul kelgan nasriy dono fikrlarni she'rga solib ketaverganini isbotlaydi.

Bir narsani esdan chiqarmasligimiz — kerak: Aristotolisning fikrini ham, Buzurjmehr aytgan hikmatni ham shoir turkiy manbadan olmagan. Demak, bu yerda nasrni nazmga aylantirishgina emas, boshqa tildagi nasriy fikrni o'zbekchada she'rga solib ifodalash ham — bor.

Eling tushunsin, desang, tarjima qil! Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasidagi Imodiddin Nasimiy haqidagi fasli biz uchun mavzumizga aloqador bir muhim nuqtaga yanada aniqlik kiritish imkonini beradi. Navoiy Nasimiyni mazhabda ayblanib, unga terisini so'yish jazosi berilganini yozadi-da, shu holatda bir g'azal aytganini gapirib, asarning matla'si va maqta'sini keltiradi. Navoiyshunos Suyima G'aniyeva izohida aytilishicha, Navoiy Nasimiyning asliyatda:

Chun Nasimiy jovidoni yor ila bo'ldi visol,
Go'y, necha donarsa, donsun bu yashil do'loblar, –
tarzida bo'lgan ozarboyjoncha baytni o'zbekcha tarjima qilib keltiradi:

Ey Nasimiy, chun muyassar bo'ldi iqboli visol,
Qo'y, teringni so'ysa, so'ysun bu palid qassoblar [5:478].

Bu Navoiyda o'rni kelganida qalamining kuchini ishga solib yuboradigan holatlar bo'lganini isbotlaydi.

Tavakkul. Tasavvufda “tavakkul” degan bir oliy maqom — bor. Bu, faqat Xudogagina umid bog'lash, degan ma'noni anglatadi. Bunda solik yakkash shu kuni, nafas olib turgan lahzasinigina o'ylaydi, xolos. U: “Kecha — o'tib bo'ldi, erta hali kelgani — yo'q. Bugun nafas berib turgan Yaratgan ertaga ham bir g'amimizni yer!” — deya fikrlaydi.

Bunda solik Haq taolaga ishonmaslik qilayotgani — yo'q. Yoki ertaning g'amini chekmaslik uning tushkunligidan dalolat ham emas. Aksincha, bu shundanki, endi so'fiy tamoman Egamning amriga bo'ysunadi — Unga tavakkal qiladi.

Hamohanglik. Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida:

Chu oxir bo'lurbiz adam, ey rafiq,
G'animat tutoli bu dam, ey rafiq!
Bu bir dam, ki xushvaqtlig' berdi dast,

Tarab jomidan aylagil o'zni mast.

Chu bu damni charx o'tkarur ham — bu dam,
Damodam may ich, kim erur dam bu dam.

Ko'rub umr tarixi bir mubhamlig'in,

G'animat bil ashob hamdamlig'in [1:468], —

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

degan parcha — bor. U 68-bobning boshlanmasi sifatida keladi. Undagi g'oya bilan biz tahlil qilgan bayt o'rtasida bevosita aloqadorlik va hamohanglik — bor.

Joziba. O'tmish — bugun — kelajak! Konfutsiy — Aflotun — Abulfazl Hasan Saraxsiy — Mavlono To'tiy — Alisher Navoiy!..

Bir dono fikrning turli makon va zamonda, turli xalqlarga mansub buyuk shaxslar tomonidan aytilishini qarang!

Ochiq tan olish kerakki, bu ifodalarning hech biri ta'sirchanlik kuchiyu badiiy jozibasi bo'yicha Navoiyning ikki satriga teng kelolmaydi. Aslo! Baytga yana bir karra quloq tutib ko'raylik:

Moziyu mustaqbal ahvolin takallum ayla kam,

Ne uchunkim, dam – bu damdur, dam – bu damdur, dam– bu dam!

Da'vat. Bu fikr bizni hozirgi zamonning qadriga yetishga, ertaga yanada yaxshiroq yashashni istasak, bugun kechagidan unumliroq, samaraliroq, oqilonaroq, qisqasi, ko'proq va xo'broq mehnat qilishga da'vat etadi. Eng muhimi — shu.

Xulosa. Shu narsa aniqlashaptiki, ulug' shoir asarlarida uchragan har bir she'riy parcha ham uning o'z ijodiy mahsuli bo'lavermaydi. Shunga qaramasdan, ularning barini Navoiy hikmatli so'zlari sifatida to'plamlarga kiritaveramiz. Holbuki, ko'pini muallif birovning fikri sifatida keltiradi. Masalan, ko'pchiligimiz Navoiyning hikmati sifatida yodlab, davralarda aytib yuradiganimiz bir bayt kimniki ekanini aniqlashtiraylik. “Tarixi anbiyo va hukamo”da shunday parcha bilan tugaydi: “Buzurjmehr. No'shiravoni odilning vaziri erdi. Aning so'zlaridindur, kim: “Ustodimdin so'rdum, kim: “Yigitlikda ne qilmoq yaxshi va qarilig'da ne qilmoq yaxshi?” Dedi, kim: “Yigitlikda ilm kasb qilmoq va qarilig'da ani amalg'a kelturmak yaxshidur.

She'r:

Yigitlig'da yig' ilmning maxzani,

Qarilig' chog'i xarj qilg'il ani” [4:194].

Ko'rinib turibdiki, Buzurjmehr o'zbekcha ham aytmagan, she'r qilib ham yozmagan. Fikr — undan, tarjima qilib, she'rga solish — Navoiydan.

Yoki:

Shoh darovu xalq erur anhor,

Ikisining suyig'a bir maza bor [4:193], —

baytining g'oyasi, ya'ni mazmuni antik davr yunon allomasi Aristotolis (Arastu) hakimga tegishli: “Aning so'zlaridin budur, kim: “Podshoh ulug' rudga o'xshar va atboyi arig'larg'a, kim ul ruddin ayrildilar, kim ul rud suyig'a, har hol bo'lsa, arig'larg'a hamul holdur. Ul chuchuk bo'lsa, bular chuchuk, ul achig' bo'lsa, bular achig', ul sof bo'lsa, bular sof, ul loy bo'lsa, bular loy” [4:193].

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Yana bir misol shuki, Navoiy o'zi keltirgan:

Zarari borcha elga om o'lg'ay,

Kim taom ustida taom o'lg'ay [4:194], —

bayti No'shiravoni odil zamonida yashagan Sodiq degan hakim aytgan: “Lo ta'kul taoman va fi me'datika taomun” [4:194], —, — degan arabcha hikmatning o'zbekchaga she'riy tarjimai ekanini yashirmagan.

Demak, birinchidan, Navoiy nasriy asarlari tarkibida keladigan she'riy parchalarning poetik xususiyatlarini, ikkinchidan, genezisini, ya'ni fikrni aslan kim aytganligini, uchinchidan, qay tarzda, ya'ni she'rdan she'rgami, nasrdan she'rgami, shuningdek, turkiydanmi yoki arabiy yoki forsiy tildanmi olinib, she'rga solinganini aniqlashtirib o'rganish ham navoiyshunosligimizning galdagi vazifalari sirasiga kiradi. Bu navoiyshunoslikda nisbatan yangi tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi ham.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 11. — Toshkent: Fan, 1993.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 14. — Toshkent: Fan, 1998.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 15. — Toshkent: Fan, 1999.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 16. — Toshkent: Fan, 2000.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. T. 17. — Toshkent: Fan, 2001.
6. Alisher Navoiy. Xamsa. — Toshkent: O'ZSSR Fanlar akademiyasi, 1958.
7. Pandi zindagī. // Ovozi to'qik, 29 iyuli soli 2023.